

KO'CHMA MA'NONING SUBYEKTIV BO'YOQ KASB ETISHIDA METONIMIYA HODISASINING O'RNI

Mirzakarimova Zamira Dadamatovna
Angren universiteti F.f.n., dotsent

Annotatsiya: Bu maqolada so'zlarning metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: metonimiya, subyektiv bo'yoq, ko'chma ma'no, obyekt, ijobiy belgi, salbiy subyektiv bo'yoq, ijobiy subyektiv bo'yoq.

So'zlarning metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi ham subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Subyektiv bo'yoqning yuzaga kelishi esa ko'chma ma'no hosil bo'lishi uchun asos bo'lgan leksik ma'noda ifodalangan obyekt bilan bog'liqdir. Mazkur obyektning hayotga ijobiy yoki salbiy rol o'ynashi bo'yoqning qanday bo'lishini belgilaydigan asosiy omil bo'lib qoladi.(1) So'zning hosil ko'chma ma'nosi orqali ifoda etilgan obyektga asos ma'no ifoda etgan obyekt aloqador bo'lib, unga belgi bo'lish vazifasini ham bajaradi. Mana shunday belgi bo'la oluvchi obyektga nomi bilan shunday belgiga ega bo'la oluvchi obyekt atalib ketar ekan, belgining subyektiv xususiyatiga qarab belgi nomida hosil bo'lgan ko'chma ma'no subyektiv bo'yoqqa ega bo'ladi. Subyektiv ma'no ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin.(2)

Metonimiya natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lishi ham metafora yo'li bilan ko'chma ma'no hosil bo'lishi kabi keng tarqalgan hodisadir. Biroq, haq qanday metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'no subyektiv bo'yoqqa ega bo'lavermaydi. Metonimiya natijasida bir necha hollarda subyektiv bo'yoqqa ega ko'chma ma'nolar hosil bo'la oladi. Quyida esa shu haqida to'xtalib o'tamiz.

Ijobiy subyektiv bo'yoq faqat fe'l turkumiga oid so'zlarda metonimiya natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lsa, shu ko'chma ma'nolarda o'z aksini topadi, bu esa harakat o'zi uchun ijobiy belgi vazifasini o'tovhi, ma'lum element bo'luvchi harakat nomi bilan atalish orqali yuzaga keladi. O'zining ijobiy belgisini o'tovchi, ma'lum elementi bo'luvchi harakatni ifoda etgan fe'l turkumidagi so'z bilan atalib kelingan harakat shu so'zning ko'chma ma'nosi shakllanishi uchun obyekt bo'ladi. Hosil bo'lgan ko'chma ma'no, ijobiy belgi va element bo'luvchi harakatni ifodalagan fe'lda shakllanganligi uchun ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etadi.(3) Masalan: ... *u yog'ini burab, bu yog'ini burab gurillatib beraman.* (O.Yoqubov) gapiga e'tibor beraylik. Bu gapda gurillatmoq so'zi orqali yaxshi yura oladigan qilib tuzatmoq, ma'nosi ifoda etilgan. Gurullatmoq so'zining genetik ma'nosi mashina motorining bir me'yorda ishlagan ovozini ifoda etadi. Bu o'rinda mashinani yaxshi yuritib yuborish yaxshi ishlaydigan motorga xos belgi bilan, ya'ni gurillab chiqqan ovozini bildiruvchi so'z bilan atab yuborilgan. Shu tufayli fe'l turkumiga xos gurullatmoq so'zining hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etgan. Masalan:- *Men shu to'g'rida gazetaga bir maqola yozsam deb ham o'ylagan edim, - dedi Zargarov, lekin kelishtirolmasman deb qunt*

qilmadim (A.Qahhor). Frislar uymalanib yotgan punktlarda haftalab qolib ketadi, biror odam shubxa qilmaydi, ishuni do'ndirib qaytad. (Y.Sulaymo).

Bu gaplardagi kelishtirmoq, do'ndirmoq so'zlari ifoda etgan ko'chma ma'nolar metonimiya natijasi bo'lib, ularning ijobiy subyektiv bo'yog'i ham gurullatmoq so'zining ko'chma ma'nosi bo'yog'iga oxshash yo'l bilan yuzaga kelgan.

Metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nolarning salbiy subyektiv bo'yoq kasb etishi ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etishi kabi so'z turkumi jihatidan chegaralangan emas. U ot, sifat, fe'l turkumiga oid so'zlarning metonimiya natijasida ko'chma ma'no hosil qilishi salbiy subyektiv bo'yoq kasb etishiga moyil bo'ladi. Bunda esa salbiy subyektiv bo'yoq obyekt o'zi uchun ijobiy belgi vazifasini o'tovchi obyekt nomi bilan atalish orqali yuzaga keladi. O'zining ijobiy belgisini o'tovchi obyektini ifoda etgan ot turkumidagi so'z bilan atalib kelgan obyekt shu so'zning ko'chma ma'nosi shakllanishi uchun asos bo'ladi. Hosil bo'lgan ko'chma ma'no salbiy belgi vazifasini o'tagan obyektini ifodalagan ot turkumida shakllanganligi uchun u salbiy subyektiv bo'yoq kasb etadi. Masalan: *Bu maraz to'rt yildan beri meni hilvatga tortadi, to'rt yildan beri qulog'imga shivirlaydi...* (A.Qahhor) gapiga e'tibor beraylik. Bu gapda maraz so'zi orqali odam ifoda etilgan. Uning genetik ma'nosi kasallikni ifoda etib, kishi hayotida turganki, salbiy rol o'ynaydi. Shuning uchun shu so'z orqali ifoda etilgan odam ko'chma ma'nosi salbiy subyektiv bo'yoqqa – tahqirlash, pastga urish xususiyatiga ega bo'lgan.(4)

Ot turkumiga oid so'zlarda bunday metonimiya natijasida salbiy subyektiv bo'yoqli ko'chma ma'no hosil bo'lishiga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: *Pes-pesni qorong'ida topadi. (Maqol). Cho'loq, doridan olib kel (Oybek). Keyinchalik paxtani boyning bachchasi o'g'irlaganini bilishdi. (S.Zunnunova.) Bo'lmas, bunaqa shlyapa bilan chaqchaqlashib o'tirishingizni xohlayman (O.Yoqubov).*

Bu gaplardagi pes, cho'loq, bachcha, shlyapa so'zlari ifoda etgan ko'chma ma'nolar metonimiya natijasi bo'lib, ularning salbiy subyektiv ma'nosi ham maraz so'zining ko'chma ma'nosi bo'yog'iga oxshash yo'l bilan yuzaga kelgan. Biroq shlyapa so'zining shlyapalik odam ko'chma ma'nosida salbiy subyektiv bo'yoqni kasb etishi qolgan so'zlarning ko'chma ma'no va unda salbiy subyektiv bo'yoq hosil qilishiga nisbatan farqqa ega. Chunki shlyapa so'zi odamdagi salbiy xususiyatni emas, balki kiyadigan kiyimni ifoda etuvchi genetik ma'noga ega. Kontekstdagi ko'chma ma'no shunga asoslangan. Biroq kishining o'z nomi qolib, kiyimi nomi bilan atashning o'zi uni mensimaslikni ifoda etadi. Buning ustiga so'zlovchi o'zi yoqtirmagan kiyim nomi bilan o'sha shaxsni nomlagan. Shuning orqasida shlyapa so'zi shlyapali kishi ko'chma ma'nosini salbiy subyektiv bo'yoq kasb etib qolgan. Metonimiya natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nolarning salbiy subyektiv bo'yoq kasb etishi yuqorida qayd etganimizdek, faqat ot turkumi doirasida bo'lmay, sifat turkumi doirasidagi so'zlarga ham xosdir.(5)

Masalan: *Oriq, oyuoqlari ingichka juldur dehqonlar omoch ortidan enkayib, xorg'in yer haydaydilar (Oybek).* Bu gapdagi sifat turkumiga oid juldur so'zi orqali kiyimi yirtiq va yupun ekanligi tasvirlangan. Bunday yirtiq-yamoq kiyimiga xos belgi oraqli odam ahvolining nochorligi anglashiladi. Shu tufayli ko'chma ma'no juldur

soʻzida oʻz oʻrnini topgan. Shunga koʻra sifat soʻz turkumiga mansub boʻlgan yuqoridagi juldur soʻzining koʻchma maʼnosi salbiy subyektiv boʻyoq kasb etgan.

Ot turkumiga oid soʻzlarda bunday metonimiya natijasida salbiy subyektiv boʻyoqli koʻchma maʼno hosil boʻlishiga yana bir necha misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: *Keksa eshon esa oʻz tajribasidan chiqargan loʻnda xulosasini anqov otin oyiga chaynab bermoqda (P.Tursun). Fuad afandi tanfuruslar gumashtasi boʻlib, qora umrini qora ishlar bilan oʻtkazgan qabih bir maxluq edi (M.Ismoilii).*

Bu gaplardagi sifat soʻz turkumiga oid anqov, qabih soʻzlariga ifoda etilgan koʻchma maʼnolar salbiy subyektiv boʻyoq kasb etgan. Bu soʻzlar koʻchma maʼnosining salbiy subyektiv boʻyogʻi ham juldur soʻzi koʻchma maʼnosining salbiy subyektiv boʻyogʻining yuzaga kelishiga oʻxshash yoʻl bilan hosil boʻlgan.

Metonimiya natijasida hosil boʻlgan koʻchma maʼnolarning salbiy subyektiv boʻyoq kasb etishi feʼl turkumi doirasidagi soʻzlarga ham xosdir. Feʼl turkumidagi soʻzlarning ijobiy subyektiv boʻyoqli koʻchma maʼnolari ham hosil boʻladi. Bu oʻrinda faqat birgina farqli munosabat kechadi. Harakat oʻzi uchun ijobiy emas, balki salbiy vazifazini oʻtovchi maʼlum elementi boʻluvchi harakat nomi bilan atalishi orqali metonimiya sodir boʻlsa, bunday metonimiya natijasida feʼl turkumiga oid soʻz hosil qilgan koʻchma maʼno salbiy subyektiv boʻyoq kasb etadi. Yaʼni feʼl turkumiga oid soʻzning asos maʼnosi ifoda etgan harakat hayotda salbiy ahamiyatga ega ekanligiga qarab hosil boʻlgan koʻchma maʼnosi ham salbiy subyektiv boʻyoqqa ega boʻladi.

Masalan: *Uning qoʻlida kitob koʻrsa, Tojiboy baqirib berar edi (S.Zunnunova)* gapiga eʼtibor beraylik. Bu gapdagi baqirmoq soʻzi qattiq ovoz bilan urishmoq koʻchma maʼnosini ifoda etib kelgan. Bu soʻzning genetik maʼnosi esa keraksiz holda qattiq ovoz chiqarmoqni ifoda etadi. Bu esa baqirib gapirish iborasi kuchu bir element, belgi vazifasini oʻtaydi.

Feʼl turkumiga oid bunday salbiy subyektiv boʻyoqqa ega koʻchma maʼnoli soʻzlar koʻplab uchraydi. Bunga biz quyida qator misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: *Ana shu kuni hech narsa bilmagan kishidek Xolmurodovga bobilloab bermoqchi boʻldi-yu, koʻziga koʻzi tushganda jurʼat etolmadi (V.Gʻofurov). Naimiy bu gurungdan tezlab oʻtib ketmoqchi edi, keyingi gapni eshitib, boshiga birov guvala bilan urganday kalovlanib qoldi (A.Muxtor.) Rustam rozilik bergan boʻlsa, onasi nima derdi, yolgʻiz ogʻlining rayini qaytarmidi? – piching aralashtirib jilpangladi Miroid (V.Gʻofurov).* Bu gapdagi bobillamoq, kalovlanmoq, jilpanglamoq soʻzlari ifoda etgan koʻchma maʼnolar metonimiy natijasi boʻlib, ularning salbiy subyektiv boʻyogʻi ham gʻungʻillamoq soʻzining koʻchma maʼnosi boʻyogʻiga oʻxshash yoʻl bilan yuzaga kelgan.

Metonimiya natijasida hosil boʻlgan koʻchma maʼnolarning salbiy subyektiv boʻyoq kasb etishi ravish turkumi doirasidagi soʻzlarga ham xosdir. Masalan: *Yodgor qaynotasining koʻziga birinchi marta tik qaradi (OʻHoshimov)* gapiga eʼtibor beraylik. Bu gapdagi ravish turkumiga oid tik soʻzi koʻz urushtirib koʻchma maʼnoni ifodalab kelgan. Bunda koʻchma maʼno gerdayib turib maʼnoli tik soʻzida oʻz oʻrnini topgan.

Ravish turkumiga oid soʻzlarda bunday salbiy subyektiv boʻyoqqa ega koʻchma maʼnoli soʻzlar nisbatan kam hosil boʻladi. Quyida yana bir shunday misolni keltirib

o`tamiz.: Zuxroning uyidagi ahvoli, mashg`ulotini surishtirib, biljing-biljing qiladi, ordona (A.Muhiddin). Bu gapda kelgan ravish turkumiga oid biljing-biljing so`zi ifoda etgan ko`chma ma`no metonimiya natijasi bo`lib, salbiy subyektiv bo`yog` ham tik so`zining ko`chma ma`nosi bo`yog`iga o`xshash yo`l bilan vujudga kelgan.

Salbiy subyektiv bo`yoqqa ega ko`chma ma`noli ravish turkumiga oid so`zlar juda kam uchraydi. Buni esa ravish turkumiga oid so`zlarda ko`chma ma`nolarning metonimiya natijasida nihoyatda kam hosil bo`lishi bilan izohlash mumkin.

Metonimiya natijasida hosil bo`lgan so`z ko`chma ma`nolarining turli qatlamlarida subyektiv bo`yoqlarning tarqalishi turlichadir. Ijobiy subyektiv bo`yoqlar faqat fe`l turkumiga oid so`zlar metonimiya natijasida ko`chma ma`no hosil qilsa, o`sha ko`chma ma`nolarda aks etishi mumkin. Salbiy subyektiv bo`yoqlar esa ot, fe`l, sifat va ravish turkumiga oid so`zlar ham metonimiya natijasida ko`chma ma`no hosil qilsa, o`sha ko`chma ma`nolarda o`z aksini topish imkoniga ega. Ular ot va fe`l turkumiga oid so`zlarning metonimiya natijasida hosil qilgan ko`chma ma`nolarida juda kam, katta barmoq bilan sanarli darajadagi miqdorda uchraydi. Xullas, subyektiv bo`yoqlarning qanday turkumdagi so`zlarning metonimiya natijasida hosil qilgan ko`chma ma`nolari bo`yicha tarqalishi turlicha bo`lib, uning yuzaga chiqishi ko`chma ma`noni hosil qilgan asos ma`no etuvchi obyektning hayotdagi mohiyati bilan bog`liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Suvonova R.O`zbek tilida metonimiya.-T.,2001.-B.54.
- 2.Mirtojiev M.M.Hozirgi o`zbek adabiy tili.1-jild.-Toshkent:Universitet,2004.-B.191.
- 3.Abdullayev A.O`zbek tilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usuli.-Toshkent:Fan,1987.-B.69.
- 4.Mirzakarimova Z.D.”O`tgan kunlar”leksikasida turkiy qatlam//O`zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.Ilmiy maqolalar to`plami.-Toshkent,2008.-B.109-110.
- 5.Qurbonova M.Hozirgi zamon o`zbek tili.-Toshkent,2002.-B.12.